



ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2022- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiy majmuasida markaziy o'rinni korxonalar egallaydi, chunki aynan ular milliy daromadni yaratadi, bir vaqtning o'zida ishlab chiqaruvchi vazifasini bajaradi hamda o'zini o'zi ta'minlash va mustaqillikka asoslangan takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi.

Ma'lumki, yaratilgan yalpi milliy mahsulot hajmi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mamlakat aholisining moddiy va ma'naviy manfaatlarini qondirish darajasi mustaqil korxonalarning muvaffaqiyatlariga bog'liq.


Korxonaning foydalilik darajasi minimal ishlab chiqarish xarajatlari bilan fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda eng qulay sharoitlarni va shu bilan birga yuqori sifatli mahsulotlarni samarali ishlab chiqarishga imkon yaratishidir, boshqacha qilib aytganda, korxona bu – iqtisodiyotni tashkil qilishning shunday shakli bo'lib, u yerda yakka iste'molchi va ishlab chiqaruvchi uchta yirik iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun bozor orqali o'zaro aloqada bo'ladi: nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish kerak? Shu bilan birga, tadbirkorlarning va tashkilotlarning birortasi ongli ravishda ushbu iqtisodiy muammolarning uchligini hal qilish bilan shug'ullanmaydi (bozor elementida har kim ularni individual darajada hal qiladi).

Ma'lumki, bozor tizimida hamma narsa o'z narxiga ega. Bozor iqtisodiyoti insonlar va korxonalarni narxlar va bozorlar tizimi orqali ongsiz ravishda muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Agar bozorlarning barcha xilma-xilligini oladigan bo'lsak, unda o'z-o'zidan narxlar va ishlab chiqarish muvozanatini sinov va xatolar orqali ta'minlaydigan keng tizimga ega bo'lamiz.

O'zbekistondagi korxonalar faoliyati O'zbekiston Respublikasining soliq, bojxona, valyuta, moliya, investitsiya va boshqa qonun hujjatlarini o'z ichiga olgan qonunchiligi bilan tartibga solinib, mamlakatimizdagi korxonalarning ayrim xususiyatlarini, jihatlarini va faoliyatini tartibga soladi.

Korxona va tashkilotlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar


fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

2022- yil yanvar-oktabr holatiga ko'ra


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Hududlar kesimida

Andijon sh.	946	Qo'rg'on tepa t.	272
Baliqchi t.	528	Oltinko'l t.	245
Andijon t.	435	Marhamat t.	234
Asaka t.	426	Jalaquduq t.	193
Shahrixon t.	390	Bo'ston t.	169
Xo'jaobod t.	293	Buloqboshi t.	158
Paxtaobod t.	285	Ulug'nor t.	98
Izboskan t.	274	Xonobod sh.	67


Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 5 013 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan bu ko'rsatkich 1 247 taga kamaydi va 80,1 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida o'tgan yilga nisbatan yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Baliqchi (65 ta), Izboskan (17 ta) va Paxtaobod (14 ta) tumanlarida sezilarli o'sish kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

3 678
133,5 %



Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

9 799

101,2 %



Sanoat

3 354

98,0 %



Qurilish

13 152

107,5 %



Savdo

1 473

104,2 %



Tashish
va saqlash

2 007

98,8 %



Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar

624

98,0 %



Axborot va aloqa

1 125

110,8 %



Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmatlar
ko'rsatish

9 058

100,1 %



Boshqa turlar

Hududlar kesimida

Andijon sh. 13 049

Asaka t. 4 158

Andijon t. 3 144

Shahrixon t. 3 073

Baliqchi t. 2 500

Izboskan t. 2 185

Qo'rg'ontepa t. 2 174

Oltinko'l t. 2 155

Marhamat t. 1 940

Xo'jaobod t. 1 902

Paxtaobod t. 1 865

Jalaquduq t. 1 791

Buloqboshi t. 1 356

Bo'ston t. 1 193

Xonobod sh. 904


Ulug'nor t. 881

2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga (42 247 ta) nisbatan 2 023 taga oshib, o'sish sur'ati 104,8 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'sishi Baliqchi (340 ta), Andijon (337 ta), Izboskan (282 ta), Asaka (227 ta) va Xo'jaobod (209 ta) tumanlarida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 923 ta, savdoda – 917 ta, sanoatda – 113 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar korsatishda – 110 taga to'g'ri kelib, tashish va saqlash sohasida esa boshqa sohalarga nisbatan kamroq – 59 tani tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati

2022- yilning
2020- yilga
nisbati2022- yilning
2021- yilga
nisbati

Hududlar kesimida

Andijon sh.	885
Baliqchi t.	516
Andijon t.	422
Asaka t.	399
Shahrixon t.	374
Paxtaobod t.	281
Xo'jaobod t.	277
Qo'rg'ontepa t.	266
Izboskan t.	261
Oltinko'l t.	235
Marhamat t.	229
Jalaquduq t.	189
Bo'ston t.	160
Buloqboshi t.	150
Ulug'nor t.	93
Xonobod sh.	63

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Tahlillar shuni ko'rsatdiki, so'nggi uch yil ichida viloyatimizdagi tadbirkorlik subyektlarining taxminan 44 foizi yangi tashkil etilgan.


Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari sonining o'tgan yilga nisbatan Baliqchi (63 taga), Qo'rg'ontepa (25 taga), Paxtaobod (19 taga), Oltinko'l (16 taga), Izboskan (13 taga) va Marhamat (5 taga) tumanlarida sezilarli o'sishi kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan solishtirilganda eng yuqori o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (758 taga) hamda tashish va saqlash sohasida (17 taga) o'sish kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi - 38 829 tasi yoki 87,7 foizi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelib, o'sish sur'atlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,6 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (133,8 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (111,0 foiz), savdo (107,5 foiz), tashish va saqlash (104,0 foiz) hamda sanoat (101,1 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lsa, hududlar kesimida esa Baliqchi (118,5 foiz), Izboskan (116,0 foiz), Ulug'nor (115,6 foiz), Xo'jaobod (114,1 foiz), Andijon (113,0 foiz), Paxtaobod (112,3 foiz) va Marhamat (112,3 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.


Hududlar kesimida

Andijon sh.	11 864
Asaka t.	3 714
Andijon t.	2 831
Shahrixon t.	2 612
Baliqchi t.	2 192
Izboskan t.	1 895
Oltinko'l t.	1 845
Qo'rg'ontepa t.	1 828
Xo'jaobod t.	1 672
Marhamat t.	1 672
Paxtaobod t.	1 596
Jalaquduq t.	1 485
Buloqboshi t.	1 130
Bo'ston t.	981
Xonobod sh.	794
Ulug'nor t.	718


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	884	Izboskan t.	261
Baliqchi t.	515	Oltinko'l t.	235
Andijon t.	421	Marhamat t.	229
Asaka t.	399	Jalaquduq t.	189
Shahrixon t.	374	Bo'ston t.	160
Paxtaobod t.	281	Buloqboshi t.	150
Xo'jaobod t.	277	Ulug'nor t.	93
Qo'rg'ontepa t.	266	Xonobod sh.	63

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 1 160	Sanoat 905	Qurilish 219
Savdo 1 641	Tashish va saqlash 144	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 156
Axborot va aloqa 102	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 118	Boshqa turlar 352


Ma'lumki, viloyatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jadal rivojlanmoqda. Shuningdek, mahalliy tadbirkorlar va investorlar uchun bir qator qulay huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratilib kelinmoqda.

Shunday qilib, 2022- yil yanvar-oktabr oyida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2021- yilning mos davriga nisbatan 666 taga kamaygan. Ushbu ko'rsatkich iqtisodiy faoliyat turlari kesimida tahlil qilinganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 758 taga hamda tashish va saqlashda – 17 taga oshganligini ko'rishimiz mumkin.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududlar kesimida

Andijon sh.	11 794	Marhamat t.	1 666
Asaka t.	3 704	Xo'jaobod t.	1 665
Andijon t.	2 820	Paxtaobod t.	1 592
Shahrixon t.	2 608	Jalaquduq t.	1 479
Baliqchi t.	2 188	Buloqboshi t.	1 129
Izboskan t.	1 892	Bo'ston t.	979
Oltinko'l t.	1 839	Xonobod sh.	790
Qo'rg'ontepa t.	1 823	Ulug'nor t.	714

2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni 2021- yilning mos davriga nisbatan 2 040 taga ko'paygan va o'sish sur'ati 105,6 foizni tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (133,6 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (111,0 foiz), savdoda (107,5 foiz) hamda tashish va saqlash (104,0 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lsa, hududlar kesimida Baliqchi (118,4 foiz), Izboskan (116,0 foiz), Ulug'nor (115,5 foiz), Xo'jaobod (114,0 foiz), Andijon (113,1 foiz) va Paxtaobod (112,4 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.

2- bo'lim. Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Dehqonchilik,
va chorvachilik,
ovchilik
va bu sohalarda
xizmat ko'rsatish

3 468

21

O'rmonchilik
va yog'och
tayyorlash

Baliq ovlash
va akvakultura

189


Asaka t.	468
Andijon sh.	315
Shahrixon t.	302
Andijon t.	292
Baliqchi t.	283
Qo'rg'ontepa t.	276
Izboskan t.	273
Paxtaobod t.	247
Marhamat t.	206
Jalaquduq t.	201
Oltinko'l t.	177
Bo'ston t.	168
Ulug'nor t.	161
Xo'jaobod t.	156
Buloqboshi t.	104
Xonobod sh.	49

O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.


Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida meva-sabzavot yetishtirishga bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash, shuningdek, bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Shunday qilib, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining ko'pligi bo'yicha, Asaka tumani viloyatda yetakchilik qilib kelmoqda.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	3 021
Asaka t.	1 008
Andijon t.	876
Shahrixon t.	719
Xo'jaobod t.	561
Baliqchi t.	502
Oltinko'l t.	463
Qo'rg'ontepa t.	392
Izboskan t.	367
Jalaquduq t.	362
Marhamat t.	337
Paxtaobod t.	321
Buloqboshi t.	309
Bo'ston t.	215
Xonobod sh.	209
Ulug'nor t.	137

9 448

101,3 %

Ishlab chiqarish sanoati

36

97,3 %

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

148

100,7 %

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

167


96,0 %

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Qayd etish kerakki, sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. Shunday qilib, so'nggi uch yil ichida milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 148,1 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 22,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 96,4 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilga nisbatan o'sish 101,3 %), 1,5 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (100,7 %), 0,4 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (97,3 % ni) va 1,7 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (96,0 % ni) tashkil etgan.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida



Bino va inshootlar qurish

2 042
96,2 %

Fuqarolik obyektlarini qurish

305
113,4 %

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

1 007
97,6 %

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 10,1 foizga oshgan.


Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qargalanda:

binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 60,9 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 96,2 foizni tashkil etadi;


fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13,4 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 30,0 foiz ulushni va 97,6 foizni tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	3 587
Asaka t.	1 171
Baliqchi t.	889
Andijon t.	865
Shahrixon t.	862
Oltinko'l t.	757
Izboskan t.	742
Qo'rg'ontepa t.	705
Paxtaobod t.	658
Jalaquduq t.	590
Marhamat t.	584
Xo'jaobod t.	583
Buloqboshi t.	374
Bo'ston t.	316
Xonobod sh.	235
Ulug'nor t.	234

Avtomobil va
mototsikllar
savdosidan tashqari
chakana savdo

8 377
105,4 %

Avtomobil va
mototsikllar
savdosidan tashqari
ulgurji savdo

3 817
111,8 %


Avtomobil va
mototsikllarning ulgurji
va chakana savdosi va
ularni ta'mirlash

958
109,2 %


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonini ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishida 63,7 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 5,4 foizga o'sgan;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 29,0 foiz ulushni tashkil etib, 11,8 foizga oshgan;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 7,3 foiz ulushni tashkil etib, 9,2 foizga o'sgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	782
Asaka t.	181
Andijon t.	146
Xonobod sh.	104
Shahrixon t.	103
Oltinko'l t.	85
Qo'rg'ontepa t.	82
Ulug'nor t.	74
Izboskan t.	69
Paxtaobod t.	63
Jalaquduq t.	62
Baliqchi t.	59
Xo'jaobod t.	57
Buloqboshi t.	57
Marhamat t.	48
Bo'ston t.	35

Yashash bo'yicha xizmatlar

Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar




2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 13,0 foizga oshgan bo'lib, viloyatdagi jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 4,5 foiz ulushini tashkil etdi.


Mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar va shaharchalar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyatlari hisoblanib, 2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 7,2 foiz ulushini tashkil etdi.

Restoran, oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish va buyurtma bo'yicha ovqat va ichimliklarni yetkazish faoliyatlari oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 92,8 foiz ulushini tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	233
Asaka t.	47
Marhamat t.	44
Baliqchi t.	42
Xo'jaobod t.	37
Shahrixon t.	36
Buloqboshi t.	36
Andijon t.	33
Qo'rg'ontepa t.	23
Oltinko'l t.	20
Paxtaobod t.	16
Jalaquduq t.	16
Izboskan t.	15
Xonobod sh.	10
Ulug'nor t.	10
Bo'ston t.	6



Nashriyotchilik faoliyati



Kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish



Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish



Aloqa



Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar




Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat

2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra nashriyotchilik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 13,1 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,8 foizni tashkil etdi.


Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 47,0 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 97,7 foizni tashkil etdi.

Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar hamda axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 39,9 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 96,5 foizni tashkil etgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	402
Asaka t.	96
Shahrixon t.	93
Andijon t.	69
Izboskan t.	60
Baliqchi t.	60
Marhamat t.	51
Oltinko'l t.	47
Paxtaobod t.	46
Qo'rg'ontepa t.	45
Xo'jaobod t.	44
Buloqboshi t.	41
Jalaquduq t.	39
Xonobod sh.	17
Bo'ston t.	9
Ulug'nor t.	6

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

1 095
110,8 %

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

18
90,0 %

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


12
171,4 %

2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 97,3 foizini sog'liqni saqlash sohasi yo'nalishidagi korxonalar tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 10,8 foizga o'sgan.


Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasining 1,6 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 90,0 foizni tashkil etgan.

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,1 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 71,4 foizga o'sgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	608
Asaka t.	142
Andijon t.	103
Shahrixon t.	85
Qo'rg'ontepa t.	66
Izboskan t.	55
Marhamat t.	55
Xo'jaobod t.	54
Oltinko'l t.	52
Paxtaobod t.	52
Baliqchi t.	51
Jalaquduq t.	41
Bo'ston t.	39
Buloqboshi t.	37
Ulug'nor t.	17
Xonobod sh.	16

Quruqlikdagi va quvur transporti

1 132

106,9 %

Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati

315

95,7 %

Pochta va kuryerlik faoliyati

25

100,0 %

Havo transporti

1


100,0 %

2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,3 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlari sohasining quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlari soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 6,9 foizga oshgan. Havo transporti yo'nalishida 100,0 foizni, pochta va kuryerlik yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 100,0 foizni hamda ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishida 95,7 foizni tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot


2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soniTadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi (shakllantirilishi) va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Hududlar kesimida


Andijon sh.	827	Xo'jaobod t.	232
Baliqchi t.	472	Marhamat t.	216
Andijon t.	373	Oltinko'l t.	208
Asaka t.	333	Jalaquduq t.	155
Shahrixon t.	321	Buloqboshi t.	143
Izboskan t.	239	Bo'ston t.	98
Paxtaobod t.	237	Ulug'nor t.	82
Qo'rg'ontepa t.	235	Xonobod sh.	60

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

2 824
149,9 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

7 510
104,9 %



Sanoat

2 968
101,2 %



Qurilish

10 527
111,9 %



Savdo

1 365
105,7 %



Tashish va saqlash

1 381
102,3 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

502
105,5 %



Axborot va aloqa

856
113,8 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2 964
107,2 %



Boshqa turlar

Hududlar kesimida

Andijon sh. 9 685

Asaka t. 2 402

Andijon t. 2 265

Shahrixon t. 2 089

Baliqchi t. 1 749

Izboskan t. 1 638

Oltinko'l t. 1 496

Xo'jaobod t. 1 445

Marhamat t. 1 420

Paxtaobod t. 1 369

Qo'rg'ontepa t. 1 357

Jalaquduq t. 1 236

Buloqboshi t. 910



Xonobod sh. 653

Ulug'nor t. 608

Bo'ston t. 575

2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan 38 829 ta tijorat korxonalari va tashkilotlaridan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 30 897 tani tashkil etdi. Shunga asosan, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar viloyatimizdagi eng keng tarqalgan tadbirkorlik faoliyatining shakli ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaranganda, o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (149,9 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (113,8 foiz), savdo (111,9 foiz), tashish va saqlash (105,7 foiz), axborot va aloqa (105,5 foiz), sanoat (104,9 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (102,3 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Baliqchi (130,1 foiz), Marhamat (118,9 foiz), Paxtaobod (117,8 foiz), Izboskan (117,8 foiz), Bo'ston (117,8 foiz) va Ulug'nor (116,7 foiz) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sish kuzatilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimidaYillar kesimida soniYillar kesimida o'sish sur'atiHududlar kesimida

Andijon sh.	1 200	Oltinko'l t.	178
Asaka t.	738	Jalaquduq t.	162
Baliqchi t.	361	Paxtaobod t.	147
Shahrixon t.	256	Izboskan t.	132
Qo'rg'ontepa t.	250	Buloqboshi t.	108
Andijon t.	228	Bo'ston t.	93
Marhamat t.	209	Xonobod sh.	76
Xo'jaobod t.	198	Ulug'nor t.	64


2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 16,6 foizga kamaydi.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan pasayishiga axborot va aloqa (67,4 foiz), qurilish (74,1 foiz), tashish va saqlash (78,2 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohalari (79,5 foiz) shuningdek, hududlar kesimida esa – Andijon shahri (71,8 foiz), Paxtaobod (72,1 foiz), Qo'rg'ontepa (78,9 foiz) va Shahrixon (79,0 foiz) tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	782	Buloqboshi t.	95
Asaka t.	532	Baliqchi t.	57
Andijon t.	308	Xonobod sh.	55
Bo'ston t.	300	Jalaquduq t.	36
Shahrixon t.	248	Ulug'nor t.	35
Qo'rg'ontepa t.	194	Paxtaobod t.	33
Oltinko'l t.	144	Marhamat t.	26
Izboskan t.	104	Xo'jaobod t.	12

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2022- yil 1- noyabr holatiga yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 961 tani yoki ro'yxatdan o'tganlarning 90,9 foizini tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar sonining o'sishi 100,1 foizni tashkil etdi.

Oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda axborot va aloqada (120,0 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (115,8 foiz), qurilish (114,3 foiz) hamda savdo (103,9 foiz) sohalarida eng yuqori o'sish kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Bo'ston (108,7 %), Shahrixon (108,3 %), Izboskan (107,2 %), Andijon (106,6 %), Baliqchi (105,6 %) va Jalaquduq (102,9 %) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish kuzatilgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra viloyatimizda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 421 tani tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan ularning soni 110,5 foizga, ya'ni 40 donaga ko'paygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish qurilish (140,0 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (130,4 foiz), savdo (126,3 foiz), axborot va aloqa (125,0 foiz) hamda tashish va saqlash (125,0 foiz) sohalariga to'g'ri kelib, hududlar kesimida esa Izboskan (160,0 foiz), Baliqchi (128,6 foiz), Bo'ston (128,6 foiz), Asaka (126,1 foiz), Jalaquduq (120,0 foiz) hamda Qo'rg'ontepa (115,4 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida


Andijon sh.	167
Andijon t.	32
Asaka t.	29
Shahrixon t.	29
Oltinko'l t.	23
Xonobod sh.	18
Buloqboshi t.	18
Jalaquduq t.	18
Xo'jaobod t.	17
Qo'rg'ontepa t.	15
Marhamat t.	14
Paxtaobod t.	9
Baliqchi t.	9
Bo'ston t.	9
Izboskan t.	8
Ulug'nor t.	6

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

 30 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	 212 Sanoat	 35 Qurilish
 72 Savdo	 5 Tashish va saqlash	 10 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
 5 Axborot va aloqa	 7 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	 45 Boshqa turlar

2022

2021



Rossiya



AQSH



Germaniya



Xitoy



Turkiya



Janubiy Koreya



Ozərbayjon



Turkmaniston



Tojikiston



Qozog'iston




Qirg'iz R.



boshqalar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, pragmatizm, bashoratga intilish, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 259 tasi qo'shma korxonalar, 162 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.



Qo'shma korxonalar

Xorijiy korxonalar

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyot jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iyluk timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar hisoblanadi.


Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 74 228-29-74**

